Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 2 No. 2 (2026) · "Milliy statistika tizimida yangi bosqich: barqaror rivojlanish maqsadlari, xalqar... DOI: 10.5281/zenodo.24320300

"MILLIY STATISTIKA TIZIMIDA YANGI BOSQICH: BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI, XALQARO STANDARTLAR VA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR"

KICHIK BIZNESNI MOLIYALASHTIRISHDA BANK REDITLARINING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI

TDIU, "Mintaqaviy iqtisodiyot" kafedrasi dosenti
i.f.f.d. (PhD) **F.U.UMAROV**

Annotatsiya. Ushbu maqolada bank kreditining kichik biznes subyektlarini resurslar bilan ta'minlashdagi roli tahlil qilingan. Maqolada kichik biznes subyektlarining moliyaviy resurslar bilan ta'minlanishi muammolari, bank kreditlashning zamonaviy tendensiyalari, kredit resurslaridan foydalanish samaradorligi masalalari ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, bank kreditlari kichik biznes subyektlarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: bank krediti, kichik biznes, moliyaviy resurslar, kredit mexanizmi, bank-mijoz munosabatlari, biznes rivojlanishi, moliyaviy barqarorlik.

Kirish.

Zamonaviy iqtisodiy sharoitda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishiga hissa qo'shish, yangi ish o'rinlarini yaratish va aholi daromadlarini oshirish bilan bir qatorda, davlat byudjetiga soliq tushumlarini ta'minlash orqali mamlakatning iqtisodiy barqarorligini mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi [1]. Kichik biznes subyektlarining samarali faoliyati uchun moliyaviy resurslar bilan yetarli ta'minlash zarur hisoblanadi. Biroq, ko'pchilik tadbirkorlar o'z bizneslarini rivojlantirish uchun yetarli miqdorda shaxsiy mablag'larga ega emas. Shu sababli, ularga qo'shimcha moliyalashtirish manbalari kerak bo'ladi, bularning orasida bank krediti muhim o'rin tutadi. Banklarning kreditlash jarayoni orqali kichik biznes subyektlari o'z faoliyatlarini kengaytirish, asosiy vositalarni modernizatsiya qilish, aylanma mablag'larni to'ldirish va boshqa moliyaviy ehtiyojlarni qondirish imkoniyatiga ega bo'ladilar [2].

O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda kichik biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida ko'plab chora-tadbirlar amalga oshirildi, jumladan imtiyozli kreditlash dasturlari joriy etildi, kreditlash shartlari soddalashtiriildi va tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun qulay shart-sharoitlar yaratildi [3]. Biroq, bank kreditlaridan foydalanish imkoniyati va ularning samaradorligi masalasi hamon dolzarbligicha qolmoqda. Ushbu maqolaning maqsadi bank kreditining kichik biznes subyektlarini resurslar bilan ta'minlashdagi

Published: 05.06.2026

Cite this article: F.U. Umarov (2026). Kichik biznesni moliyalashtirishda bank reditlarining zamonaviy mexanizmlari. Emro Science and Education, 2(2). https://doi.org/10.5281/zenodo.24320300

© 2026 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.


rolini o'rganish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish yo'llarini taklif qilishdan iborat.

Tadqiqot davomida bank kreditlashning zamonaviy tendensiyalari, kichik biznes subyektlarining moliyaviy resurslar bilan ta'minlanishi darajasi, kreditlardan foydalanish samaradorligi va kredit mexanizmlarini takomillashtirish imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Tahlil va natijalar. Kichik biznes subyektlarini moliyalashtirish mexanizmlari moliyaviy resurslarni jalb qilish va ulardan samarali foydalanish jarayonini ta'minlaydigan usullar, vositalar va dastaklar majmuasini o'z ichiga oladi.

Moliyalashtirish mexanizmlari ichki va tashqi manbalarga bo'linadi. Ichki moliyalashtirish manbalariga korxonaning o'z mablag'lari (foyda, amortizatsiya ajratmalari) kiradi, tashqi manbalarga esa bank krediti, lizing, faktoring, venchur moliyalashtirish, davlat subsidiyalari va boshqa manbalar kiradi. Bank krediti kichik biznes subyektlarini moliyalashtirishning eng keng tarqalgan va muhim manbalaridan biri hisoblanadi.

Kichik biznes subyektlari milliy iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi hisoblanib, innovatsion rivojlanish, bandlikni ta'minlash va iqtisodiy o'sishga sezilarli hissa qo'shadi. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining ma'lumotlariga ko'ra, 2026-yilning 1-yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 1 201,6 mingtani, shundan, kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarini qo‘shgan holda) soni 493,0 mingtani, YATTlar soni 284,4 mingtani, dehqon xo‘jaliklari soni 395,6 mingtani,



1-rasm. Kichik tadbirkorlik subyektlarining YaIMdagi hajmi dinamikasi

oilaviy tadbirkorlar 5,6 mingtani, hunarmandlar 22,1 mingtani va import tovarlari sotuvchilar 0,9 mingtani tashkil etdi. 2025-yilning yanvar-dekabrida YAIM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining hajmi 923 514,6 mlrd so‘mni tashkil qildi yoki umumiy YAIM hajmidagi ulushi 52,2 % ni tashkil etdi (1-rasm) [12].

Kichik biznes subyektlarini moliyalashtirish mexanizmlari moliyaviy resurslarni jalb qilish va ulardan samarali foydalanish jarayonini ta'minlaydigan

usullar, vositalar va dastaklar majmuasini o'z ichiga oladi. Moliyalashtirish mexanizmlari ichki va tashqi manbalarga bo'linadi. Ichki moliyalashtirish manbalariga korxonaning o'z mablag'lari (foyda, amortizatsiya ajratmalari) kiradi, tashqi manbalarga esa bank krediti, lizing, faktoring, venchur moliyalashtirish, davlat subsidiyalari va boshqa manbalar kiradi [9].

Bank krediti kichik biznes subyektlarini moliyalashtirishning eng keng tarqalgan va muhim manbalaridan biri hisoblanadi. Bank kreditining afzalliklari quyidagilardan iborat[5]:

- kredit mablag'larini tezda jalb qilish imkoniyati;
- biznesni rivojlantirish uchun qo'shimcha resurslar olish;
- moliyaviy oqimlarni boshqarish va rejalashtirish imkoniyati;
- kredit tarixini shakllantirish imkoniyati;
- soliq imtiyozlari (foiz to'lovlari soliq bazasini kamaytiradi).

Biroq, bank krediti quyidagi kamchiliklarga ham ega:

- yuqori foiz stavkalari;
- qat'iy kredit shartlari;
- garov ta'minotining zaruriyati;
- kredit olish uchun ko'p hujjatlar talab qilinishi;
- kredit qaytarilmasligi xavfi.


Kichik biznes subyektlari uchun bank kreditining ahamiyati ularning hayot sikli bosqichlariga bog'liq. Yangi tashkil etilgan korxonalar uchun bank krediti dastlabki kapital shakllantirishning muhim manbasi bo'lsa, o'sish va rivojlanish bosqichidagi korxonalar uchun esa biznesni kengaytirish, yangi texnologiyalarni joriy etish va bozorda o'z mavqeini mustahkamlash imkoniyatini beradi.

O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. So'nggi yillarda mamlakatda kichik biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlash va ularga bank kreditlarini ajratish bo'yicha ko'plab islohotlar amalga oshirildi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining ma'lumotlariga ko'ra 2024-yilda YaIM ning 6,5 foizlik o‘sishiga xizmatlar sohasi – 3,4 foiz, sanoat tarmog‘i – 1,6 foiz, qurilish – 0,6 foiz va qishloq xo‘jaligi – 0,6 foiz hissa qo‘shdi. Bunda, xizmatlar sohasi va sanoat tarmog‘ininng qo‘shgan hissasida 2023-yilga nisbatan o‘sish kuzatilgan bo‘lsa, qishloq xo‘jaligi hissasida qisqarish kuzatildi. Iqtisodiyot tarmoqlaridan xizmatlar sohasi (+7,7%) va sanoat tarmog‘ida (+6,8%) yuqori o‘sish kuzatilib, 2024 yilda barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlovchi asosiy tarmoqlardan bo‘ldi. Shuningdek, qurilish ishlari hajmi 8,8 foizga hamda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish 3,0 foizga o‘sdi.


2025-yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 362 910,0 mlrd so‘mni yoki

umumiy hajmidagi ulushi 61,4 % ni tashkil etdi. O‘sish sur‘ati 2024-yilning mos davriga nisbatan 129,9 % ni tashkil qildi (2-3rasmlar) [12].



2-rasm. Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya hajmi dinamikasi

Tadbirkorlik subyektlarining biznes tashabbuslari qo‘llab-quvvatlash hamda investitsion loyihalarini moliyalashtirish, shuningdek, yangi ish o‘rinlari yaratish orqali aholining bandligini ta’minlash va qo‘shimcha daromad olish imkoniyatlari kengaytirishda banklarning o‘rni va roliga katta ahamiyat berilmoqda. 2024-yilda tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash borasidagi 539 mingdan ortiq loyihalarga tijorat banklari tomonidan jami 160 trln so‘m miqdorida kredit mablag‘lari yo‘naltirildi.



3-rasm. 2024-yilda toifalar kesimida tadbirkorlik faoliyatiga ajratilgan kreditlar ulushi

Bu ma'lumotlar kichik biznes subyektlarining asosiy kapitalga investitsiyalar uchun uzoq muddatli kreditlarga ehtiyoji yuqori ekanligini ko'rsatadi. O'zbekistonda kichik biznes subyektlarini kreditlashning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

1. Imtiyozli kreditlash dasturlari - davlat tomonidan subsidiyalashtiriladigan past foiz stavkali kreditlar.

2. Mikrokreditlash - kichik va mikro tadbirkorlik subyektlari uchun kichik summadagi kreditlar.

3. Aylanma mablag'larni to'ldirish uchun kreditlar.

4. Investitsion kreditlar - asosiy vositalarni xarid qilish va modernizatsiya qilish uchun.

5. Eksportga yo'naltirilgan kichik biznes subyektlarini kreditlash. So'nggi yillarda O'zbekistonda kichik biznes subyektlarini kreditlashni qo'llabquvvatlash bo'yicha quyidagi dasturlar amalga oshirildi:

- "Har bir oila - tadbirkor" dasturi doirasida imtiyozli kreditlar ajratish;
- Yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash dasturi;
- Ayollar tadbirkorligini rivojlantirish dasturi;
- Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari doirasida kichik biznesni kreditlash.

O'zbekistonda kichik biznes subyektlarini kreditlash sohasida sezilarli yutuqlarga erishilgan bo'lsa-da, bu sohada hali ham bir qator muammolar mavjud:

1. Yuqori foiz stavkalari - O'zbekistonda kichik biznes subyektlari uchun bank kreditlari foiz stavkalari nisbatan yuqori, bu esa kreditlarning qimmatligiga va kichik biznes subyektlari uchun ulardan foydalanish imkoniyatlarining cheklanishiga olib keladi. 2025-yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ish va xizmat)lar importining hajmi 25 390,3 million AQSH dollarini yoki jami importning 53,6 % ini tashkil etgan.

2. Garov ta'minoti muammosi - kichik biznes subyektlari ko'pincha yetarli garov ta'minotiga ega emas, bu esa ularning kredit olish imkoniyatlarini cheklaydi. Banklarning garov ta'minotiga qo'yiladigan talablari juda qattiq, garov qiymatining kredit summasiga nisbati esa yuqori.

3. Kreditlash jarayonining murakkabligi - bank kreditini rasmiylashtirish jarayoni kichik biznes subyektlari uchun murakkab va vaqt talab etadigan jarayon hisoblanadi. Ko'p sonli hujjatlar va rasmiyatchiliklarni to'ldirish, bank xodimlari bilan muzokaralar olib borish va kredit qo'mitasining qarorini kutish kichik biznes subyektlari uchun qo'shimcha qiyinchiliklar tug'diradi.

4. Axborot asimmetriyasi - banklar kichik biznes subyektlari to'g'risida to'liq va ishonchli ma'lumotlarga ega emas, bu esa ularning kredit olish imkoniyatlari mavjud.

Kichik biznes subyektlarining moliyaviy hisobotlari shaffof emasligi, kredit tarixining yo'qligi yoki salbiy bo'lishi banklar tomonidan ularni kreditlash xavfini oshiradi.

Kichik biznes subyektlarini bank krediti bilan ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

1. Foiz stavkalarini pasaytirish - inflyatsiya darajasini pasaytirish va bank tizimida raqobatni kuchaytirish orqali kichik biznes subyektlari uchun kredit foiz stavkalarini pasaytirish. Bu kichik biznes subyektlari uchun kreditlarning narxini kamaytiradi va ulardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi.

2. Garov ta'minoti talablarini yumshatish - kichik biznes subyektlari uchun garovsiz yoki yumshatilgan garov talablari bilan kreditlar berilishini kengaytirish. Bundan tashqari, garov sifatida qabul qilinadigan aktivlar ro'yxatini kengaytirish va garov qiymatining kredit summasiga nisbatini kamaytirish zarur.

3. Kreditlash jarayonini soddalashtirish - kichik biznes subyektlari uchun kredit olish jarayonini soddalashtirish, talab qilinadigan hujjatlar sonini kamaytirish va kreditni rasmiylashtirish muddatlarini qisqartirish. Bu kichik biznes subyektlarining kredit olish imkoniyatlarini oshiradi va ularning vaqt va resurslarini tejaydi.

4. Kredit axborot tizimlarini takomillashtirish - kredit byurolari faoliyatini kuchaytirish va kichik biznes subyektlari to'g'risidagi ma'lumotlar bazasini kengaytirish orqali axborot asimmetriyasi muammosini hal qilish. Bu banklarga kichik biznes subyektlarining to'lov qobiliyati to'g'risida to'liqroq ma'lumot olish imkonini beradi.

5. Uzoq muddatli kreditlashni rag'batlantirish - kichik biznes subyektlarining investitsion faoliyatini qo'llab-quvvatlash uchun uzoq muddatli kreditlarni kengaytirish. Buning uchun banklarning resurs bazasini mustahkamlash va uzoq muddatli depozitlarni jalb qilishni rag'batlantirish zarur.

6. Mintaqaviy nomutanosiblikni bartaraf etish - chekka hududlardagi kichik biznes subyektlarini kreditlash imkoniyatlarini kengaytirish uchun bank infratuzilmasini rivojlantirish va masofaviy xizmat ko'rsatish kanallarini joriy etish.

7. Kreditdan foydalanish samaradorligini oshirish - kichik biznes subyektlari uchun moliyaviy savodxonlikni oshirish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish. Bu kichik biznes subyektlariga kredit mablag'laridan samarali foydalanish va biznesni boshqarish ko'nikmalarini shakllantirish imkonini beradi.

Davlat tomonidan kreditlashni qo'llab-quvvatlash dasturlarini kuchaytirish - kichik biznes subyektlari uchun imtiyozli kreditlash dasturlarini kengaytirish va davlat kafolati mexanizmlarini joriy etish. Bu kichik biznes subyektlarining kredit olish imkoniyatlarini sezilarli darajada oshiradi.

9. Bank-mijoz munosabatlarini takomillashtirish - banklar va kichik biznes subyektlari o'rtasida uzoq muddatli va ishonchli munosabatlarni shakllantirish. Bu banklarga kichik biznes subyektlari faoliyati to'g'risida to'liqroq ma'lumot olish va ularning ehtiyojlariga mos kreditlash mahsulotlarini ishlab chiqish imkonini beradi.

10. Innovatsion kreditlash usullarini joriy etish - kraundlending, P2P kreditlash, venchur kapitali kabi zamonaviy moliyalashtirish usullarini rivojlantirish. Bu kichik biznes subyektlari uchun moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish imkonini beradi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kichik biznes subyektlarining moliyaviy resurslar bilan ta'minlanish darajasi ularning raqobatbardoshligiga va barqaror rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Jahon banki tomonidan o'tkazilgan so'rovnomaga ko'ra, O'zbekistondagi kichik biznes subyektlarining 68% i moliyaviy resurslar yetishmasligini o'z faoliyatlarini rivojlantirishdagi asosiy to'siq sifatida ko'rsatgan. Bu ma'lumotlar kichik biznes subyektlarini moliyalashtirish mexanizmlarini, ayniqsa bank kreditlash tizimini takomillashtirish zarurligini tasdiqlaydi.

Bu ma'lumotlar kichik biznesning mamlakat iqtisodiyotidagi roli qanchalik muhim ekanligini ko'rsatadi. Bank krediti kichik biznes subyektlarini ayniqsa biznesni boshlash va kengaytirish bosqichlarida moliyalashtirish uchun muhim ahamiyatga ega. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlarining 45% i biznesni boshlash uchun bank kreditidan foydalanadi. Biznesni kengaytirish bosqichida esa bu ko'rsatkich 63% gacha oshadi. Xalqaro tajribalar tahlili shuni ko'rsatadiki, rivojlangan mamlakatlarda kichik biznes subyektlarini kreditlash uchun maxsus moliyaviy institutlar va dasturlar mavjud. Masalan, AQShda Kichik biznesni qo'llab-quvvatlash ma'muriyati (SBA) kafolatlari ostida banklar tomonidan kichik biznes subyektlariga kreditlar beriladi.

Bu tajribani O'zbekistonda ham qo'llash mumkin, buning uchun davlat kafolatlarini kengaytirish va kichik biznes subyektlari uchun maxsus kredit dasturlarini ishlab chiqish zarur. Zamonaviy raqamli texnologiyalarning rivojlanishi kichik biznesni moliyalashtirish sohasiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. O'zbekistonda so'nggi yillarda onlayn kreditlash platformalari rivojlanib bormoqda, bu esa kichik biznes subyektlari uchun kredit olish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Bu tendensiyani qo'llab-quvvatlash va raqamli moliyaviy xizmatlarni yanada rivojlantirish zarur.

Xulosa va takliflar. Bank krediti kichik biznes subyektlarini moliyaviy resurslar bilan ta'minlashning eng muhim manbalaridan biri hisoblanadi. O'zbekistonda so'nggi yillarda kichik biznes subyektlarini bank krediti bilan ta'minlash bo'yicha sezilarli yutuqlarga erishilgan bo'lsa-da, bu sohada hali ham bir qator muammolar mavjud.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, O'zbekistonda kichik biznes subyektlariga ajratilgan kreditlar hajmi muntazam ravishda o'sib bormoqda, bu esa davlat tomonidan kichik biznesni qo'llab-quvvatlash siyosatining natijasi hisoblanadi. Biroq, yuqori foiz stavkalari, garov ta'minoti muammosi, kreditlash jarayonining murakkabligi, axborot asimmetriyasi, uzoq muddatli kreditlar yetishmasligi,

mintaqaviy nomutanosiblik va kreditdan foydalanish samaradorligining pastligi kabi muammolar kichik biznes subyektlarining kredit olish imkoniyatlarini cheklaydi.

Kichik biznes subyektlarini bank krediti bilan ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish uchun quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Foiz stavkalarini pasaytirish uchun inflyatsiya darajasini pasaytirish va bank tizimida raqobatni kuchaytirish choralarini ko'rish.

2. Kichik biznes subyektlari uchun garovsiz yoki yumshatilgan garov talablari bilan kreditlar berilishini kengaytirish, garov sifatida qabul qilinadigan aktivlar ro'yxatini kengaytirish va garov qiymatining kredit summasiga nisbatini kamaytirish.

3. Kichik biznes subyektlari uchun kredit olish jarayonini soddalashtirish, talab qilinadigan hujjatlar sonini kamaytirish va kreditni rasmiylashtirish muddatlarini qisqartirish.

4. Kredit byurolari faoliyatini kuchaytirish va kichik biznes subyektlari to'g'risidagi ma'lumotlar bazasini kengaytirish orqali axborot asimmetriyasi muammosini hal qilish.

5. Kichik biznes subyektlarining investitsion faoliyatini qo'llab-quvvatlash uchun uzoq muddatli kreditlarni kengaytirish, banklarning resurs bazasini mustahkamlash va uzoq muddatli depozitlarni jalb qilishni.

6. Kichik biznes subyektlari uchun moliyaviy savodxonlikni oshirish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish, bu ularga kredit mablag'laridan samarali foydalanish va biznesni boshqarish ko'nikmalarini shakllantirish imkonini beradi. Kichik biznes subyektlari uchun imtiyozli kreditlash dasturlarini kengaytirish va davlat kafolati mexanizmlarini joriy etish.

7. Banklar va kichik biznes subyektlari o'rtasida uzoq muddatli va ishonchli munosabatlarni shakllantirish.

8. Kraundlending, P2P kreditlash, venchur kapitali kabi zamonaviy moliyalashtirish usullarini rivojlantirish orqali kichik biznes subyektlari uchun moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish

Ushbu tadbirlarning amalga oshirilishi kichik biznes subyektlarining bank kreditlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi, ularning moliyaviy resurslar bilan ta'minlanish darajasini oshiradi va natijada, ularning iqtisodiy o'sishi va rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu esa o'z navbatida, mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga, yangi ish o'rinlarining yaratilishiga va aholi farovonligining oshishiga olib keladi.

Xulosa qilib aytganda, bank kreditining kichik biznes subyektlarini resurslar bilan ta'minlashdagi roli juda muhim bo'lib, kreditlash mexanizmlarini takomillashtirish va kichik biznes subyektlarining kredit olish imkoniyatlarini

kengaytirish O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lishi kerak.

Foydanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Qodirov, A. (2022). O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish: muammolar va istiqbollar. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 3(4), 45-58.

2. Mustafakulov, Sh. (2021). Kichik biznes subyektlarini moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish. Moliya va bank ishi, 6(2), 112-125.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. (2020, 13 mart). PF-5938-son.

4. Mustafakulov, Sh. (2023). Bank-mijoz munosabatlarini takomillashtirish orqali kichik biznes subyektlarini moliyalashtirishni rivojlantirish. Iqtisodiyot va ta'lim, 1(5), 78-92.

5. Xodjayeva J.R. Bank kreditining kichik biznes subyektlarini resurslar bilan ta'minlashdagi roli. “Innovations in Science and Technologies” илмий-электрон журнали ISSN: 3030-3451. 2 / 2025 йил.

6. Yanovsky, V.V. (2021). Maloye predprinimatelstvo: problemy kreditovaniya [Kichik tadbirkorlik: kreditlash muammolari]. Vestnik finansovogo universiteta, 5(3), 67-82.

7. Berger, A., & Udell, G. (2020). Small business credit availability and relationship lending: The importance of bank organizational structure. The Economic Journal, 112(477), F32-F53.

8. Stiglitz, J., & Weiss, A. (1981). Credit rationing in markets with imperfect information. The American Economic Review, 71(3), 393-410.

9. Qodirov, A. (2023). O'zbekistonda kichik biznesni moliyalashtirishning zamonaviy holati. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 5(2), 34-47.

10. Abdurahmonov, O. (2022). Kichik biznesni moliyalashtirish manbalari va ulardan samarali foydalanish yo'llari. Moliya, 4(1), 56-68.

11. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2023). 2022-yil uchun yillik hisobot. Toshkent.

12. www. stat.uz